

ONA TILI DARSLARIDA FEL SO'Z TURKUMINI O'RGANISHDA INNOVATSION
PEDAGOGIK TEENOLOGIYALAR

G‘aniyeva Shodiya Azizovna

FarDU, Boshlang‘ich ta’lim uslubiyoti kafedrasи professori, filologiya fanlari doktori (DSc).

Nodiraxon Turg‘unboyeva

FarDU, Pedagogika-psixologiya va san'atshunoslik fakulteti, Boshlang‘ich ta'lim yo‘nalishi
21.23-guruh talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15063420>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ona tili darslarida fe'l so'z turkumini o'rganishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalasi yoritilgan. Fe'l so'z turkumi o'quvchilarning nutqiy va grammatik kompetensiyasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, uni zamonaviy ta'lim texnologiyalari yordamida o'qitish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Maqolada interfaol metodlar, klaster, aqliy hujum, sinkveyn, Venn diagrammasi kabi texnologiyalar qo'llanilishining afzalliklari tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli ta'lim resurslari, elektron darsliklar, mobil ilovalar va vizual texnologiyalardan foydalanishning fe'lni o'rgatishda qanday natijalar berishi yoritiladi. Tadqiqot natijalari innovatsion yondashuvlarning o'quvchilarning mustaqil fikrashi, grammatik tushunchalarni tez va oson o'zlashtirishi hamda amaliy qo'llay bilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Shu boisdan, maqolada ona tili o'qituvchilariga fe'l so'z turkumini o'rgatishda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kirish so'zlar: Innovatsion pedagogika, Pedagogik texnologiya, Interfaol ta'lim, Differensial yondashuv, Axborot.

INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN LEARNING VERB WORD
GROUPS IN MOTHER LANGUAGE LESSONS

Abstract. This article discusses the use of innovative pedagogical technologies in the study of verb phraseology in native language classes. Verb phraseology is important in the formation of students' speech and grammatical competence, and its teaching using modern educational technologies serves to increase educational efficiency. The article analyzes the advantages of using technologies such as interactive methods, cluster, brainstorming, syncwine, Venn diagram. It also discusses the results of using digital educational resources, electronic textbooks, mobile applications and visual technologies in teaching verbs. The results of the study show that innovative approaches have a positive effect on students' independent thinking, quick and easy

mastery of grammatical concepts, and their practical application. Therefore, the article provides recommendations for native language teachers on the effective use of modern technologies in teaching verb phraseology.

Keywords: Innovative pedagogy, Pedagogical technology, Interactive education, Differential approach, Information.

ИННОВАЦИОННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ В ИЗУЧЕНИИ ГЛАГОЛОГО СЛОВОВОГО РАМКА НА ЗАНЯТИЯХ РОДНОГО ЯЗЫКА

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос использования инновационных педагогических технологий при изучении глаголов на уроках родного языка. Глагольная лексика имеет важное значение в формировании речевой и грамматической компетентности учащихся, а ее обучение с помощью современных образовательных технологий служит повышению эффективности обучения. В статье анализируются преимущества использования таких технологий, как интерактивные методы, кластер, мозговой штурм, syncway, диаграмма Венна. В нем также рассказывается, как использование цифровых учебных ресурсов, электронных учебников, мобильных приложений и визуальных технологий может дать результаты в обучении глаголам. Результаты исследования показывают, что инновационные подходы положительно влияют на самостоятельное мышление студентов, быстрое и легкое усвоение грамматических понятий и их практическое применение. Поэтому в статье даны рекомендации по эффективному использованию современных технологий при обучении учителей-носителей языка глагольной лексике.

Ключевые слова: Инновационная педагогика, Педагогические технологии, Интерактивное образование, Дифференциальный подход, Информация.

Kirish

Bugungi ta'lrim jarayoni vaqtida interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv darslari jarayoni mobaynida foydalanishga bo'lgan intilish, e'tibor kundan – kunga ortib bormoqda. O'qituvchi ushbu jarayonda o'quvchining shaxsiy takomillanishi, rivojlanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga muhit yaratadi va shuning bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funktsiyasini ham bajaradi. Ona tili darslarida, ayniqsa, fe'l so'z turkumini o'rganishda zamonaviy yondashuvlardan foydalanish o'quvchilarning til haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish, nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish va dars jarayonini

qiziqarli tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. An'anaviy ta'lim usullari o'rniga interfaol va kreativ metodlardan foydalanish natijasida o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi ortadi, mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil qilish va grammatik tushunchalarni ongli ravishda o'zlashtirish ko'nikmalari shakllanadi. Fe'l so'z turkumi o'zining shakllanishi, zamon, mayl, nisbat, shaxs-son kabi grammatik xususiyatlari bilan ona tilining eng murakkab, lekin ahamiyatli bo'lgan so'z turkumlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli ushbu mavzuni o'qitishda innovatsion texnologiyalar, jumladan, raqamli resurslar, interfaol metodlar va vizual materiallardan foydalanish fe'lning nazariy va amaliy jihatlarini samarali o'zlashtirishga xizmat qiladi. Fe'l so'z turkumini o'rganishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati, samaradorlik darajasi va ularni qo'llash usullari tahlil qilinadi. Bundan tashqari, innovatsion yondashuvlar yordamida o'quvchilarning fe'lni o'zlashtirish jarayonini qanday yaxshilash mumkinligi haqida ilmiy-amaliy tavsiyalar beriladi.

Adabiyotlar tahlili va metod

Ona tili ta'limida so'z turkumlarini, xususan, fe'lni o'rgatish o'quvchilarning grammatik bilimlarini mustahkamlash va ularning og'zaki hamda yozma nutqini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Fe'l o'zining shakllanishi, zamon, mayl, nisbat, shaxs-son kabi murakkab grammatik xususiyatlari bilan ona tilining asosiy unsurlaridan biri hisoblanadi. An'anaviy ta'lim usullari ba'zan o'quvchilar uchun zerikarli bo'lib, dars jarayoniga qiziqish kamayishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli fe'lni o'rgatishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish dolzarb masala hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalar ta'lim jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rgatish hamda dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Fe'l so'z turkumini o'qitishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan asosiy innovatsion texnologiyalar quyidagilardan iborat:

Interfaol metodlar

- **Klaster** – *fe'lning ma'nosi, shakllari va turlari bo'yicha tarmoqlangan tushunchalar tizimini yaratish orqali bilimlarni chuqurlashtirishga yordam beradi.*
- **Aqliy hujum** – *o'quvchilarning fe'lga doir bilimlarini aniqlash va yangi tushunchalarni o'zlashtirishga tayyorlash uchun qo'llaniladi.*
- **Venn diagrammasi** – *fe'lning boshqa so'z turkumlari bilan o'xshash va farqli jihatlarini taqqoslash uchun ishlataladi.*

Elektron ta'lim vositalari

Elektron darsliklar va test tizimlari o‘quvchilarning fe’l haqidagi nazariy bilimlarini mustahkamlashga imkon yaratadi. Ommabop mobil ilovalar (Quizlet, Kahoot, LearningApps) o‘quvchilarning fe’l mavzusida interfaol mashqlar bajarishiga yordam beradi. Video darslar va multimediali materiallar fe’l mavzusini yanada qiziqarli va tushunarli shaklda yetkazishga xizmat qiladi.

Gamifikatsiya (o‘yinlashtirish)

- *O‘yin shaklidagi darslar o‘quvchilarning ishtirokini faollashtiradi va fe’l mavzusini oson o‘zlashtirishga yordam beradi.*
- *“Qaysi fe’l?” viktorinalari, fe’l shakllarini moslashtirish bo‘yicha interfaol o‘yinlar; rolli o‘yinlar dars jarayonini jonlantiradi.*

Tahliliy va loyihaviy metodlar

- *O‘quvchilar fe’l bilan bog‘liq kichik tadqiqot loyihalarini bajarishlari orqali mavzuni chuqurroq o‘rganadilar.*
- *Mustaqil izlanishlar va muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali grammatik tushunchalar yanada mustahkamlanadi.*

Fe’l so‘z turkumini innovatsion texnologiyalar asosida o‘rgatish nafaqat grammatik bilimlarni yaxshilash, balki o‘quvchilarning mantiqiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Interfaol metodlar, raqamli resurslar va o‘yin texnologiyalari orqali o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi ortadi, mavzuni o‘zlashtirish samaradorligi oshadi.

Shu bois, ona tili darslarida fe’l mavzusini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish bugungi ta’lim jarayonining ajralmas qismi bo‘lishi kerak.

Ona tili fanini o‘qitish jarayonini yanada takomillashtirish borasida o‘z yechimini kutayotgan bir qator dolzarb muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Jumladan:

1. Ona tili fanini o‘qitishda asosan nazariy ma’lumotlarga e’tibor berilgan bo‘lib, o‘quvchining nutqiy kompetensiyasini shakllantirishga yetarlicha diqqat-e’tibor qaratilmagan;
2. Ona tili fanida o‘qitiladigan mavzular sinflar kesimida tahlil qilinganda, o‘quvchi uchun murakkab bo‘lgan ko‘plab grammatik mavzularning borligi; ona tili fanini hayot bilan bog‘lab o‘tishga, ona tilimizning boy sharoitlaridan yetarlicha foydalangan tarzda, o‘quvchilarga mazmunli, sodda va qiziqarli shaklda yetkazib berishga diqqat-e’tibor berilmagan;
3. O‘quvchilar darsliklardagi mavzularni o‘zlashtirishida intilish, ishtiyoq, maylni paydo qiladigan, mantiqiy, kreativ, ijodiy fikrlashga chorlovchi mashqlar, topshiriqlar bugungacha o‘z

aksini topmagan; umumiy o'rta ta'lif maktablarida ona tili fanini o'qitishning yangi, samarali metodlari, ilg'or pedagogik texnologiyalarini keng joriy etish talab darajasida emas;

4. Ona tili fanining ilmiy metodik ta'minoti yetarli darajada ishlab chiqilmagan;

5. O'qituvchi va pedagoglarning metodik ta'minotini takomillashtirish, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilarini va mutaxassislar uchun masofadan o'qitish kurslari keng joriy qilinmagan;

5. Mavjud oliy ta'lif muassasalarida ona tili fani yo'nalishida o'qituvchi, pedagog, kadrlarni tayyorlash sifati hozirgi kun talablariga xos kelmasligi ona tili fanini o'qitishni tubdan qayta ko'rib chiqish va zamon talabiga mos tarzda yangilashni taqozo etmoqda.

Natijalar

Ona tili fanidan "Gapning ikkinchi darajali bo'laklari mavzusi o'rganilgandan so'ng o'quvchilarga "Guruhlarda ishlash texnologiyasi" yordamida "Men to'ldiruvchiman!" mavzusida ijodiy matn tuzish beriladi. Ushbu metod yakka tarzda, kichik yoki yakka tartibda, kichik yoki katta guruhlar tomonidan ham amalga oshishi ham mumkin. Mavzu borasidan matn o'quvchilar yordamida taqdim etiladi. Bu texnologiya yordamida o'quvchilarning jamoada ishlash malakalari shakllantiriladi, xotirasi mustahkamlanadi, yozma yoki og'zaki savodxonligi o'stirilib, ijodiy matn yaratish ko'nikmasi yanada mustahkamlanadi. Ona tili darslarida o'quvchilarning yozma nutqi va imloviy savodxonligini mustahkamlash niyatida matn yaratish borasidan ko'pgina qiziqarli topshiriqlar taqdim etish mumkin. Shuningdek, "Morfologiya" bo'limini o'tish vaqtida har bir so'z turkumi borasidan grammatik ertak to'qish vazifasi berilsa, o'quvchilarning grammatik savodxonligi yaxshilash bilan birgalikda mantiqiy mushohada qilish qobiliyati takomillashadi, ijodkorligi oshadi.

Ona tili darslarida fe'l so'z turkumini o'rgatishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish quyidagi ijobjiy natijalarga olib keladi:

O'quvchilarning faolligi oshadi

- *Interfaol metodlar, gamifikatsiya va raqamli texnologiyalar dars jarayonida o'quvchilarning ishtirokini oshiradi.*

- *Passiv tinglovchilar o'rniغا, o'quvchilar faol fikrlovchi va muhokama yurituvchi shaxs sifatida shakllanadi.*

Mavzuni tushunish va o'zlashtirish darajasi yuqorilaydi

- *Klaster, Venn diagrammasi, aqliy hujum kabi metodlar orqali fe'lning grammatik va semantik xususiyatlari chuqur o'rganiladi.*

- Vizual va interfaol materiallardan foydalanish natijasida mavzular yanada tushunarli bo‘ladi.

Mustaqil va tanqidiy fikrlash rivojlanadi

- O‘quvchilar o‘zlari mustaqil tahlil qilib, fe’lning ma’no va shakl o‘zgarishlarini tushunishga harakat qiladilar.

- Muammoli vaziyatlarni hal qilish orqali tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllanadi.

Texnologik savodxonlik ortadi

- O‘quvchilar elektron darsliklar, onlayn testlar va mobil ilovalardan foydalanish orqali raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

- Zamonaviy ta’lim vositalaridan samarali foydalanish o‘quvchilarning bilim olish imkoniyatlarni kengaytiradi.

Dars jarayonining samaradorligi oshadi

- An’anaviy yondashuvlarga qaraganda innovatsion texnologiyalar bilan tashkil etilgan darslar tez va samarali natija beradi.

- O‘quvchilar mavzuni zerikmasdan, qiziqish bilan o‘zlashtiradilar, bu esa darslarning sifatini oshiradi.

Yozma va og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlanadi

- Fe’l so‘z turkumiga oid topshiriqlar orqali o‘quvchilar grammatik jihatdan to‘g‘ri gap tuzish va o‘z fikrlarini aniq ifodalashga o‘rganadilar.

- O‘yinlar va muhokamalar orqali og‘zaki nutq boyib boradi.

Baholash jarayoni tezlashadi va aniq bo‘ladi

- Elektron testlar, viktorinalar va onlayn platformalar orqali o‘quvchilarning bilim darajasini real vaqt rejimida aniqlash mumkin bo‘ladi.

- O‘qituvchilar baholashni tez va shaffof amalgalashga oshirishlari mumkin.

Innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish o‘quv jarayonining sifatini oshirib, o‘quvchilarning fe’l mavzusini tez va samarali o‘zlashtirishiga yordam beradi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar orqali mustaqil ta’lim olish imkoniyatlari kengayib, o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi oshadi.

Xulosa

Ona tili darslarida fe’l so‘z turkumini o‘rganishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlash va mantiqiy tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, interfaol usullar, raqamli texnologiyalar va zamonaviy ta’lim platformalaridan foydalanish dars jarayonini yanada qiziqarli va mazmunli qiladi.

Innovatsion texnologiyalar ta’lim jarayonida an’anaviy yondashuvlarni to‘ldirib, o‘quvchilarning bilimlarni tez va samarali o‘zlashtirishiga ko‘maklashadi. Axborotni chuqur anglash, mustaqil izlanish olib borish, jamoaviy ishlash va fikr almashish ko‘nikmalarini shakllanadi. O‘quvchilar nafaqat grammatik tushunchalarni o‘rganibgina qolmay, balki ularni kundalik hayotda qo‘llashga ham o‘rganadilar.

Natijada, innovatsion pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ta’lim sifatini yaxshilaydi va ularning kelajakdagi akademik hamda kasbiy rivojlanishiga mustahkam poydevor yaratadi. Shu bois, zamonaviy ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish dolzarb ahamiyatga ega.

REFERENCES

1. Shayxislamov, N.Ona tili va adabiyot darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash mahorati. Science and Education,2020.
2. Shayxislamov, N., & Baykabilov, U.Til – millatning ma’naviy merosi. Tilning leksik-semantik tizimi, qiyosiy tipologik izlanishlar va adabiyotshunoslik muammolari, 2020.
3. Xolbekov, S. B.Adabiyot darslarida interfaol metodlardan foydalanish samarasi. Science and Education, 2020.
4. Rafiyev A. G’ulomova N. Ona tili va adabiyot (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). T. “Sharq”, 2013.
5. Sayidahmedov N.”Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya”. – T.: 2003.